JAMIYAT TARAQQIYOTIDA LIDER AYOLLARNING O‘RNI

Bekmuhammadova Sabrina Ismoil qizi, Guliston davlat pedagogika instituti talabasi.
e-mail: bekmuhammedova@gmail.com

Annotatsiya. So‘nggi o‘n yillikda ayollarning yuqori rahbarlik lavozimlaridagi ishtiroki sezilarli darajada oshib, jamiyatda yosh avlod, xususan, qizlarni yanada yuqori maqsadlar sari intilishga ilhomlantirmoqda. Ushbu maqola yetakchi ayollarning ijtimoiy o‘rganish nazariyasi asosida yoshlarni o‘ziga ilhomlantiruvchi rol modeliga aylanishini tahlil etadi. YUNESKO va Jahon banki ma’lumotlari ayollarning rahbarligining qizlarning o‘rta maktabni tamomlash darajasi bilan ijobiy bog‘liqligini tasdiqlaydi. Maqola kelajak avlod uchun zanjirni mustahkamlash maqsadida siyosiy kvotalar, strategik media kampaniyalari va STEM inkubatorlarini taklif etadi.

Kalit so‘zlar: Gender tengligi, lider ayollar, ijtimoiy o‘rganish nazariyasi, media ko‘rinishi, ayollar rahbarligi, yosh avlod, ta’lim tizimi, qizlar ta’limi, motivatsiya, ilhomlantiruvchi rol modellari;

РОЛЬ ЖЕНЩИН-ЛИДЕРОВ В РАЗВИТИИ ОБЩЕСТВА

Аннотация. Участие женщин на руководящих должностях значительно возросло за последнее десятилетие, вдохновляя молодое поколение общества, особенно девочек, стремиться к более высоким целям. В статье анализируется, как женщины-лидеры становятся вдохновляющими образцами для подражания для молодежи на основе теории социального обучения. Данные ЮНЕСКО и Всемирного банка подтверждают, что лидерство женщин положительно коррелирует с показателями окончания девочками средней школы. В статье предлагаются политические квоты, стратегические кампании в СМИ и инкубаторы STEM для укрепления цепочки для следующего поколения.

Ключевые слова: гендерное равенство, женщины-лидеры, теория социального обучения, репрезентация в СМИ, женское лидерство, молодое поколение, система образования, образование девочек, мотивация, вдохновляющие ролевые модели;

THE ROLE OF WOMEN LEADERS IN SOCIETY DEVELOPMENT

Abstract. The participation of women in senior leadership positions has increased significantly in the last decade, inspiring the younger generation, especially girls, to strive for greater goals in society. This article analyzes the role of female leaders as inspiring role models for young people based on social learning theory. Data from UNESCO and the World Bank confirm that female leadership is positively associated with girls’ secondary school completion rates. The article suggests that political quotas, strategic media campaigns, and STEM incubators can strengthen the chain for the next generation.

Keywords: Gender equality, women leaders, social learning theory, media visibility, women's leadership, young people, education system, girls' education, motivation, inspiring role models;

Kirish. So‘nggi o‘n yillikda ayollarning nafaqat siyosat va biznes, balki ilm-fan, madaniyat va texnologiyalar kabi turli sohalardagi yuqori lavozimlardagi ishtiroki misli ko‘rilmagan darajada oshdi. Bu tendensiya jamiyatning ayollar rolini qabul qilish va baholash bo‘yicha an'anaviy qarashlarini tubdan o‘zgartirayotganini ta'kidlash joiz. Ayol liderlarning erishayotgan yutuqlari, ularning fidoyiligi, qat'iyati va innovatsion yondashuvlari yosh avlodni, ayniqsa qizlarni cheksiz orzularga ilhomlantirib, ularning hayot yo‘lini belgilashda muhim ahamiyat kasb etmoqda.

Ayol liderlarning o‘rnak ko‘rsatish qobiliyati yosh avlodning kelajakka bo‘lgan ishonchini mustahkamlab, ularga o‘z qobiliyatlariga ishonch bilan qarashga undaydi. Ular nafaqat muvaffaqiyatga erishish yo‘llarini ko‘rsatib berishadi, balki jamiyatdagi stereotiplar va to‘siqlarni yengishda ham namuna bo‘lishadi.

Yangi avlodning zamonaviy talablari va intilishlariga javoban, ayol liderlar yoshlar uchun nafaqat ilhomlantiruvchi rol modeliga, balki ularning yo‘lboshchisiga va qo‘llab-quvvatlovchisiga aylanib bormoqda. Ular o‘z tajribalari, bilim va ko‘nikmalari bilan o‘rtoqlashib, yoshlarga o‘z maqsadlariga erishishda yordam berishga tayyor.

Mavzuga oid adabiyotlar tahlili. Jamiyat taraqqiyotida ayollarning o‘rni, xususan, lider ayollarning roli so‘nggi yillarda jahon miqyosida keng o‘rganilmoqda. Ushbu mavzu nafaqat gender tenglik nuqtai nazaridan, balki iqtisodiy, ijtimoiy va siyosiy barqarorlikni ta'minlash omili sifatida ham muhim ahamiyatga ega. Adabiyotlar tahlili xorijiy va mahalliy tadqiqotlarni qamrab olgan holda quyidagi asosiy yo‘nalishlarni o‘z ichiga oladi:

Gender va liderlik yo‘nalishda Alisa Eagly, Kerol Gilligan kabi olimlarning ishlari muhim o‘rin tutadi. Eaglyning "Gender va liderlik transformativ yondashuvi" [1, 5-b.] asarida ayollar liderligining o‘ziga xos xususiyatlari, transformativ liderlik uslubi va gender stereotiplarining ta'siri o‘rganiladi. Gilligan esa "G‘amxo‘rlik etikasi" [2, 14-15-b.] nazariyasida ayollarning axloqiy qaror qabul qilishdagi farqlari, hamdardlik va g‘amxo‘rlikning liderlikdagi ahamiyatini yoritadi.

Ayollarning iqtisodiy roli borasida Ester Dufloning ishlari diqqatga sazovor. Duflo o‘z tadqiqotlarida ayollarning iqtisodiy imkoniyatlarini kengaytirishning kambag‘allikni kamaytirishga ta'sirini o‘rganadi. Uning "Kambag‘allik iqtisodiyoti" [3, 18-b.] asarida ayollarga kreditlar berish, ularning tadbirkorlik faoliyatini qo‘llab-quvvatlash va ta'lim olish imkoniyatlarini oshirish orqali iqtisodiy o‘sishga erishish mumkinligi ko‘rsatiladi.

O‘zbekistonda gender tenglik va ayollarning jamiyatdagi roli masalalari so‘nggi yillarda faol o‘rganilmoqda va davlat siyosatining asosiy bo‘g‘iniga aylanib bormoqda. Mamlakatimizda ham Respublikada oila va xotin-qizlarga oid davlat siyosatini yangi bosqichga olib chiqish, ularning muammolariga tizimli yechim topish, vakolatli organlar faoliyatini samarali tashkil etish va muvofiqlashtirish maqsadida O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 1-martdagi "Oila va xotin-qizlar bilan ishlash, mahalla va nuroniylarni qo‘llab-quvvatlash tizimini takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida"gi PF-81-sonli Farmoni hamda "Oila va xotin-qizlar davlat qo‘mitasi faoliyatini tashkil etish to‘g‘risida"gi PQ-146-sonli Qaroriga muvofiq O‘zbekiston Respublikasi Oila va xotin-qizlar davlat qo‘mitasi, uning Qoraqalpog‘iston Respublikasi, viloyatlar, Toshkent shahar boshqarmalari va tuman (shahar) bo‘linmalari tashkil etilgan.

Tadqiqot metodologiyasi. Ushbu maqola tarixiy, sotsial va kontent tadqiqot metodlariga asoslangan bo‘lib, unda ilmiy maqolalar, kitoblar va huquqiy hujjatlar kabi turli xil manbalar tahlil qilingan. Tadqiqot ayol liderlarning kelajak avlodga

namuna bo‘lishi hamda yangi ayol liderlar va qizlarning yetishib chiqishiga ilhom berishini yoritadi. “Ayol liderlar - yangi avlod uchun ilhom” iborasi jamiyatda ayollarning liderlik roli va ularning yosh qizlar uchun ilhom manbai sifatidagi ahamiyatini ta’kidlaydi.

Tahlil va natijalar. Banduraning ijtimoiy o‘rganish nazariyasiga ko‘ra, odamlar kuzatuv orqali xulq-atvorni o‘zlashtiradi. Shu bois, omma ko‘z o‘ngida turgan ayol yetakchilar yoshlar uchun kuchli rol modeli bo‘la oladi. Bundan tashqari, “shisha shift” konsepsiyasi ayollarni yuqori lavozimlardan chetlashtiruvchi ko‘rinmas to‘siqni tavsiflaydi. Ayol liderlar ushbu to‘siqni sindirib, jamiyat stereotiplarini zaiflashtiradi.

O‘zbekistonda mehnat bozorida gender tenglik bo‘yicha qonunchilikda ijobiy o‘zgarishlar kuzatilmoqda. Bejizga aytishmaganidek, “Ayollar ishlagan va rahbarlik qilgan joylarda tartib, adolat, halollik va madaniyat yuqori bo‘ladi”. Jamiyatda yoki hayotda nima bo‘lishidan qat’iy nazar, doimiy ravishda kelajak uchun harakatda bo‘lib turish eng yaxshisi hisoblanadi. Agar ayol kishi ilmli bo‘lsa, butun bir jamiyat ilmli bo‘ladi.

Ayollarni faqat jinsiga qarab emas, balki ularning salohiyatiga va qobiliyatlariga asoslanib lavozimlarga tayinlash kerak. Ayollarga faqatgina ayol bo‘lganliklari uchungina mansab berilmasligi kerak, zero hozirgi kunda ayollarimiz bu borada ishonchni oqlayaptilar. Hozirgi kunda O‘zbekistonda lider ayollar qatlamini shakllantirish, ularning jamiyatdagi rolini oshirish va gender tenglikni ta’minlashga doir ijobiy natijalar namoyon bo‘lmoqda.

Prezidentimiz aytganlaridek, “Oqila va o‘qimishli onalar millatning buyuk kelajagini yaratadi”. O‘zbekistonda gender tengligi va ayollar huquqlarini himoya qilish davlat siyosatining muhim yo‘nalishlaridan biri sifatida e’tirof etiladi. UNESCOning 2023-yilgi hisobotiga ko‘ra, ayollar parlamentda 30% ulushga yetgan mamlakatlarda qizlarning o‘rta maktabni tugatish darajasi o‘rtacha 8% yuqori. O‘zbekistonda 2020-2024- yillarda ayol tadbirkorlar soni 2,6 martaga ko‘paydi. Shu davrda oliy ta’limga kirayotgan qizlar ulushi 42% dan 50% ga ko‘tarildi.

Ayollarning jamiyatdagi mavqeini mustahkamlash va kelajak avlodga ilhom baxsh etishlari uchun mahalliy kengashlarda ayollar ulushini kamida 35% gacha oshirish, “Ayollar ilhom manbai” hujjatli filmlar seriyasi va podkastlar tayyorlash, har bir viloyatda STEM klublari va “Girls in Tech” inkubatorlarini ochish, grantlarni ko‘paytirish juda yaxshi samara beradi. Mentorlik va tarmoq (“TechWomen” dasturi bitiruvchilari 2022-yilda Markaziy Osiyodagi 300 nafar maktab o‘quvchisiga mentorlik bilan ko‘maklashdi), ta’lim integratsiyasi (O‘zbekistondagi 25 ta maktabda “Ayol yetakchilar klubi” fakultativi joriy etilib, bir yilda 1500 qiz fan-texnika to‘garaklariga qo‘shildi).

Ayollarning yetakchilikdagi roli jamiyat taraqqiyotiga qo‘shadigan ijtimoiy-iqtisodiy hissasi bilan bir qatorda, yosh qizlarni o‘z imkoniyatlariga ishonishga va ularga erishish yo‘lida rag‘batlantiradi. Bu, ayol va qizlarda “men ham eplay olaman” degan kuchli ishonchni paydo qiladi. Ayollar rahbarligining tobora ortib borishi nafaqat hozirgi jamiyatni, balki kelajak avlodni ham shakllantirishi shubhasiz.

Ayol liderlar o‘zlarining yuksak axloqiy va professional standartlarini namoyon etib, yoshlarni motivatsiya qiladi va ularni o‘zgarishlarga tayyorlaydi. Bu ayniqsa ijtimoiy tenglik, ta’lim va siyosatdagi muhim o‘zgarishlarni ilgari surishda benihoya ahamiyatga ega. Shunday ekan, lider ayollar nafaqat yangi avlod uchun, balki ularning kelajakdagi muvaffaqiyatlari poydevoriga aylangan desak, xato bo‘lmaydi.

Lider ayollar - bu jamiyatda o‘zining yuksak axloqiy qadriyatlari, intilishlari va tajribalari bilan boshqalarga ilhom beradigan, o‘zini ishonchli tarzda ifodalovchi va boshqaruvda yuqori natijalarga erishgan ayollardir. Ular nafaqat o‘z ishlarida

muvaffaqiyat qozonishadi, balki boshqa insonlarga ham ushbu cho‘qqilarni zabt etish uchun yo‘l ko‘rsatadilar.

Lider ayollar o‘z xususiyatlariga ko‘ra quyidagi jihatlari bilan ajralib turadi:

- O‘ziga bo‘lgan ishonch: Lider ayollar o‘z qarorlarida qat’iy, o‘z maqsadlariga erishishda bardoshli va ishonchli bo‘ladilar. Ular har qanday qiyinchilikka qaramasdan, o‘z yo‘lini topa olishadi.
- Empatiya va muloqotga tayyorlik: Jamoa bilan samarali muloqot qila oladi, insonlarning his-tuyg‘ularini tushunadi va boshqalar bilan ijobiy munosabatlarni o‘rnatadi. Empatiya liderlikda kuchli sifatdir, chunki bu boshqalarni ilhomlantiradi va motivatsiya beradi.
- Innovatsion fikrlash: Yangi g‘oyalarni ilgari surishga, yangiliklarni o‘rganishga va ularni hayotga tadbiq etishga tayyordirlar. Ular tizimdagi kamchiliklarni ko‘ra olishadi va ularni tuzatish yo‘llarini izlashadi.
- O‘zgaruvchanlikka moslashuvchanlik: Yangi muammolarga qarshi samarali strategiyalar ishlab chiqadilar.
- Ta’lim va tarbiyada liderlik: O‘z bilim va tajribalarini boshqalar bilan baham ko‘radi, yoshlarga o‘rgatadi va o‘zlarining malakalarini oshiradilar.

Gender tengligi - bu erkak va ayollarning, shuningdek, barcha jinsiy orientatsiya va identifikatsiyalarga ega shaxslar o‘rtasidagi teng huquqli munosabatlaridir. Gender tengligi huquqiy, ijtimoiy, iqtisodiy, ta’limiy va siyosiy tenglik kabi jihatlarni o‘z ichiga qamrab oladi. O‘z haq-huquqlarini, erkinliklarini va majburiyatlarini bilgan ayol albatta lider bo‘la oladi va jamiyatga foydasi tegadigan shaxs sifatida o‘zini namoyon qila oladi.

Xulosa va takliflar. Lider ayollar va ularning faoliyati jamiyatdagi ijtimoiy o‘zgarishlarni amalga oshirishda muhim ahamiyatga ega. Ayollar nafaqat o‘z uy-joylarida, balki jamiyatda ham muhim o‘rin tutadilar. Tanzila Narbayeva kabi yetakchi ayollar gender tengligini ta’minlash, ayollarga imkoniyatlar yaratish va ularning ijtimoiy huquqlarini himoya qilish borasida katta faoliyat olib bormoqdalar. Ular o‘zlarining yuksak maqsadlari va jasorati bilan boshqalarga ilhom berib, yangi avlodni o‘zgarishlar yaratishga undaydilar.

Lider ayollar o‘z hayotlari va faoliyatlari bilan jamiyatdagi o‘zgarishlarga ijobiy ta’sir ko‘rsatadilar. O‘z maqsadlariga erishish yo‘lida boshqalarni ilhomlantiradilar va yangi avlod uchun ilhom manbai bo‘lib xizmat qiladilar. Bugungi kunda ayollarni rag‘batlantirish va ularni liderlik pozitsiyalariga olib chiqish masalasi global miqyosda diqqatga sazovor. Global siyosat, iqtisodiyot va ilm-fanda ayollarni teng huquqlik va imkoniyatlar bilan ta’minlash borasidagi tashabbuslar qo‘llab-quvvatlanmoqda. Bular gender tengligini rivojlantirishga, ayollarni boshqaruv pozitsiyalariga olib chiqishga va tafovutlarni kamaytirishga xizmat qiladi.

Ayollar yetakchiligini qo‘llab-quvvatlash nafaqat adolatli jamiyatni shakllantirishga, balki iqtisodiy o‘sish, ijtimoiy rivojlanish va siyosiy barqarorlikka erishishda ham muhim omil hisoblanadi. O‘zbekistonda ham ayollarni liderlikka tayyorlash, ularning ijtimoiy va siyosiy ishtirokini kengaytirish borasida sezilarli o‘zgarishlar namoyon bo‘lmoqda.

Prezident Shavkat Mirziyoyev tomonidan ayollarni siyosat va boshqaruvda faol ishtirok etishga rag‘batlantirish, ular uchun ijtimoiy imkoniyatlar yaratish bo‘yicha amalga oshirilayotgan tashabbuslar ayniqsa, yangi avlod qizlarini o‘zining bilim, iste’dod va mahoratini ro‘yobga chiqarishga ilhomlantiradi. Global miqyosda ayollar liderligi rivojlanishda davom etar ekan, jamiyatlar yanada barqaror, adolatli va teng imkoniyatlarga ega bo‘lishi kutilmoqda. Bu esa yangi avlodni yanada kuchliroq, ilhomlangan va qobiliyatli qilishga imkon yaratadi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Alice H. Eagly. Women as leaders: Leadership Style Versus Leaders' Values and Attitudes. President & Fellows of Harvard College. 2013. https://www.hbs.edu/race-gender-equity/Shared%20Documents/eagly.pdf

2. Carol Gilligan. The ethic of care. Barcelona. 2013. https://www.fundaciogrifols.org/documents/4438882/4449432/monograph30.pdf/f41cb4a7-ad7d-42d6-a820-2c71d2e56df5?t=1420808089536

3. Ester Duflo. Poor Economics. Public Affairs. 2012. https://www.hachettebookgroup.com/titles/abhijit-v-banerjee/poor-economics/9781610391603/?lens=publicaffairs